



DUNYOGA MASHHUR SAMARQAND

NUFUZLI XALQARO FORUMLARGA HOZIRLANMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-mart kuni Samarqandga tashrif buyurib, hududda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va kelgusidagi rejalar bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari dastlab Imom Buxoriy majmuasini ziyorat qildi. Qur'on tilovat etilib, duo o'qildi.



— Kuni kecha xalqimiz bilan Navro'z ayyomini kutib oldik. Bugun, muqaddas Ramazon oyida mana shu tabarruk joyga kelib turibmiz. Bu ulug' kunlarga tinchlik-xotirjamlikda yetkazgani uchun Yaratganga shukronalar aytamiz. Ilohim, hami-sha yurtimiz tinch, elimiz farovon bo'lsin, hamma xayrli niyatlarimiz amalga oshsin. Bu majmuani Imom Buxoriy bobomizga munosib tarzda quryapmiz. U ziyorat bilan birga ma'rifat, tarbiya, ibrat o'chog'i bo'lsin, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Imom Buxoriy maqbarasi butun islom olamida e'zozli maskan. Ko'p ming sonli ziyoratchilarga sharoitlarni kengaytirish maqsadida Prezidentimiz tashabbusi bilan bu yerda yangi majmua barpo etilmoqda.

Majmuaning umumiy maydoni 44 gektar. Bugungi kunda mahobatli maqbara, 10 ming kishiga mo'ljallangan masjid qurib bitkazilgan. Balandligi 75 metrlik 4 ta minora majmuaga ulug'vorlik bag'ishlagan. Shuningdek, muzey, ayvonlar, ma'muriyat va xizmat ko'rsatish binolari barpo etilgan.

Ayni paytda pardozlash ishlari olib borilmoqda. Bunda milliy an'analar va issiq ranglardan foydalanilmoqda. Peshtoqlar va ayvon devorlariga "Sahihi Buxoriy" dan hadislar bitiladi.

Bundan tashqari, hududda ikki ming o'rinli yigirmadan ortiq mehmonxona, xiyobonlar, xizmat ko'rsatish shoxobchalari barpo etiladi.

Bu yil yurtimizda Imom Moturidiy taval-ludining 1155 yilligi keng nishonlanadi. Shu haqdagi Prezident qarorida kalom ilmi sultonining Samarqand shahridagi majmuasini qayta ta'mirlash va obodonlashtirish belgilangan.

Tashrif chog'ida Prezidentimizga ushbu loyiha taqdimot qilindi.

Qayd etilganidek, Moturidiy majmuasida 1 ming 500 kishiga mo'ljallangan jome masjid, ma'muriy bino qurilishi ko'zda tutilgan. U yerda kutubxona, majlislar zali, innovatsion muzey hamda mutaxassislar uchun xonalar bo'ladi. Majmua yaqinida avtoturargoh tashkil etiladi, ziyoratchilar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratiladi.

Imom Abu Mansur Moturidiy islom olamida itiloflar avj olib, har xil firqalar ko'paygan paytda yashagan, butun hayotini islomiy aqidani himoya qilish va ma'rifatini yoyishga bag'ishlagan. U zotning moturidiylik ta'limoti, "Ta'vilot ul-Qur'on", "Kitob at-Tavhid" kabi asarlari bag'rikenglik va mo'tadillik tamoyillari bilan ahli sunna val-jamoaning ma'naviy asoslariga aylangan.

Davlatimiz rahbari bu tamoyillar bugungi kunda ham dolzarb bo'lib borayotganini ta'kidlab, alloma bobomizning merosini yanada keng o'rganish va jahonga targ'ib etish, majmuaga keluvchilarga sharoitlarni kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Yana bir xayrli loyiha — Oqdaryo tumanidagi Mahdumi A'zam qadamjosini obod qilishga qaratilgan. Asli hozirgi Kosonsoy tumanida tug'ilgan so'fiy olim naqshbandiya ta'limotining rahnamolaridan biri bo'lgan. Ilm va din yo'lidagi uzoq safardan so'ng Samarqandda abadiy qo'nim topgan.

Bu maskanga keluvchi ziyoratchilar ham ko'p. Ularga sharoitlarni yaxshilash maqsadida majmua hududida qurilish-obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi, bugungi kun talablariga mos qo'shimcha qulayliklar yaratiladi.

Taqdimot chog'ida Samarqand zamindan yetishib chiqqan boshqa olim va mutafakkirlar, aziz avliyolarning qadamjolari ham bosqichma-bosqich ta'mirlanib, obod qilinishi aytiladi.

So'nggi yillarda eng zamonaviy standartlarga mos infratuzilma yaratilgani tufayli Samarqand shahri xalqaro miqyosdagi yirik tadbirlar — oliy va yuqori darajadagi sammitlar, konferensiya va kongresslarning an'anaviy mezbongiga aylandi.

2022-yilda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Buyuk ipak yo'li" majmuasi bunyod etilgani bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqib, Samarqandning xalqaro markaz sifatidagi salohiyatini yanada oshirdi.

Shavkat Mirziyoyev ushbu Xalqaro turizm markaziga tashrif buyurib, olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, yaratilayotgan sharoitlar bilan tanishdi. Majmuada xorijiy delegatsiyalar va sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, qulayliklarni kengaytirishga qaratilgan muayyan ishlar olib borilmoqda, qator yangi obyektlar qurilmoqda.

Jumladan, markaz hududda umumiy maydoni 1150 kvadrat metr bo'lgan yirik konsert zali barpo etilmoqda. 100 kishini qabul qila oladigan madaniyat maskani zamonaviy akustika uskunalar bilan jihozlanmoqda.

Prezidentimiz xorijiy delegatsiyalar, ikki tomonlama uchrashuvlar uchun qulayliklarni oshirish bo'yicha tavsiyalar berdi.

Shu yerning o'zida Samarqand viloyati hokimi hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlani-shi yuzasidan davlatimiz rahbariga hisobot berdi.

Ta'kidlash joiz, joriy yilda Samarqandda yirik xalqaro anjumanlar bo'lib o'tadi. Bugungi kunda "Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti va Iqlim forumi, "Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab davlatlari" sammiti, YUNESKO Bosh konferensiya-sining 43-sessiyasini o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rilmog'ida.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahriga tashrifi yakunida Hazrati Xizr majmuasida bo'lib, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov maqbarasini ziyorat qildi.

O'zA.



MAHALLA FIDOYILARI TAQDIRLANDI

Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan sohaning bir guruh fidoyi vakillari "Mahalla iftixori" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Jumladan, viloyatimizdan 16 nafar mahalla faollariga ushbu nishonlarni topshirish marosimi o'tkazildi.

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev mukofotlarni o'z egalari taqdirlash chog'ida mahalla tizimi bugun davlat va jamiyat hayotida muhim o'rin va nufuzga ega bo'lib borayotganini ta'kidladi. Davlatimiz rahbari tomonidan o'zini o'zi boshqarish organlariga qaratilayotgan yuksak e'tibor, berilayotgan imkoniyatlar aholining tinch-totuv yashashi, xavfsizligini ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim ahamiyatga egaligi qayd etildi.

— Mahalla bugun fuqarolarning ishonch qo'rg'oniga aylandi, desak, mubolag'a bo'lmaydi, — deydi Paxtach tumanidagi Do'ng mahallasi raisi, "Mahalla iftixori" ko'krak nishoni so-

hibi Abdunazar Xalilov. — Chunki davlatimiz rahbari tomondan oqilona tizim yaratilib, hududlarning o'zida har qanday muammoga yechim topish imkoniyati yaratildi. Bugun quyi bo'g'inning o'zida, "mahalla yetilligi" ishtirokida barcha masalalar joyida hal etilmoqda. Shu bois hozirgi kunda fuqarolarning yuqori organlardan ko'ra, mahallaga murojaati ortgan. Uch yillik faoliyatim davomida hududni jinoyat va ajrimlardan xoli hududga aylantirib, mavjud muammolarni mahallaning o'zida hal etishga erishdik. Birorta huquqbuzarlik, ajrim qayd etilgan emas.

Toyloq tumanidagi Xonchorbog' mahallasi profilaktika inspektori Obid Sultonov mahallada ish boshlaganida hudud "qizil" toifada bo'lgan. Bugun esa "yashil" toifaga o'tgan va bunda profilaktika inspektorining xizmatlari inobatga olinib, "Mahalla iftixori" ko'krak nishoniga loyiq ko'rildi.

Tadbirda tizimda samarali faoliyat yuritayotgan bir guruh "mahalla yetilligi" vakillari viloyat hokimligining tashakkurno-masi bilan taqdirlandi.

A.ISROILOV.

Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanayotgan iqtisodiyotning asosi hisoblanadi.

ISHLAB CHIQARISHNI MAHALLIYLASHTIRISH SANOATDA KOOPERATSIYA ALOQALARINI KENGAYTIRISHNING YANGI BOSQICHI



Mamlakatimiz taraqqiyotining keyingi yetti yilida mahalliyashtirish sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi etib belgilandi. Tarmoqlar va hududlar doirasida mahalliyashtirish dasturlari shakllantirildi, korxonalariga import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha manzilli yordam berib borish tizimi yo'lga qo'yildi. Mahalliy sanoat mahsulotlarining davlat xaridlarida ishtirokini kengaytirish maqsadida cooperation.uz elektron kooperatsiya portali yaratildi. Sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish maqsadida hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalari faoliyatini doimiy tarzda tashkil etib borilmoqda.

Samarqand viloyatining 2024-yildagi mahalliyashtirish dasturida 64 ta korxonaning 105 ta loyihasi doirasida 2,8 trillion so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, reja 119,2 foizga bajarildi. 550 ta yangi ish o'ri yaratilib, 114,6 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

MUSTAHKAM DAVLAT

baxtli oiladan boshlanadi

Faoliyatim davomida ta'lim sohasida ham ishlagan bo'lsam-da, umrimning katta qismi xotin-qizlar bilan ishlash, ularning muammolarini o'rganish bilan o'tmoqda. Xotin-qizlar qo'mitasi tizimida ishlash doim murakkab bo'lgan. Chunki oilalarda notinchlik kuzatilgan paytda ichki ishlar xodimlari qatorida xonadonga borishga to'g'ri kelgan holatlar kam emas. Lekin bundan bir necha yillar avval ish ko'lami keng bo'lsa-da, xotin-qizlar qo'mitalari rahbarlari qo'lida yetarlicha imkoniyat yo'q edi. Muammoli xonadonlarga borganimizda, ularga dalda berishdan boshqasi qo'limizdan kelmasdi. Maqomimiz hokim o'rinbosari edi, lekin oilaga yordam berish uchun homiy topishimiz yoki boshqa yo'larni qidirishimizga to'g'ri kelardi. Bugun tizimda katta islohotlar olib borildi.

Avvalo, nomi "Oila va xotin-qizlar qo'mitasi" sifatida o'zgardi va bu butun bir xonadon a'zolari bilan ishlash imkonini beryapti. Har bir ayol oilada yashaydi, deylik er to'satdan xastalanib, oila qiyin ahvolga tushib qolsa, qanday yo'l tutishni bilmasdik. Bugun shunday oila bekalarini "Ayollar daftari"ga kiritib, ularga ma'lum bir yordam ajratish imkoni yuzaga keldi. Ummu-man, xotin-qizlarning salomatligini tiklashdan tortib, ularning kasb-hunarli bo'lishi, uy-joy masalasidagi muammolar — hammasini hal etish uchun tizim yaratildi.

Bulung'ur tumani hokimi



o'rinbosari — oila va xotin-qizlar bo'limi rahbari sifatidagi faoliyatim davomida oilalar xotirjamligini ta'minlash, onalarning sog'lom farzand dunyoga keltirishi, farzandlar tarbiyasi masalasiga doim eng muhim vazifa sifatida qaraganman. Bu sa'y-harakatlarimiz natijasida tumanda oilaviy ajrimlar, notinch oilalar soni kamaydi. Bayram arafasida poytaxtda o'tkazilgan nufuzli anjumanda ishtirok etar ekanman, faoliyatimni yana bir bor sarhisob qilib oldim. Yurtimizda xotin-qizlarni e'zozlash, ularning mehnatini qadrlash, oilalar tinchligi yo'lidagi ishlar yanayam mustahkamlanishiga, bu masalada katta ishlarning oldida turganimizni his qildim.

Nasiba MAMADIYAROVA,
"Do'stlik" ordeni sohibasi.

Kambag'allikdan farovonlik sari



Xotin-qizlarni ijtimoiy muhofaza qilish, bandligini ta'minlash, ayniqsa, ehtiyojmand ayollarni manzilli qo'llab-quvvatlashda "Ayollar daftari"ning ahamiyati oshib bormoqda.

"Ayollar daftari" –

xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalashning samarali tizimi

Joriy yilda "Ayollar daftari" bilan ishlash tizimining 6-bosqichi doirasida ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash yuzasidan aniq va manzilli chora-tadbirlar belgilandi. Ularning ro'yxatini shakllantirish va yordam ko'rsatishda shaffoflik, adolat va haqqoniylik tamoyillari ustuvorligini ta'minlash bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi va viloyat kengashi tomonidan tizimli jamoatchilik nazorati olib borilmoqda.



Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-dekabrda qaratilgan hamda 2024-yil 14-dekabrda qaratilgan xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha respublika komissiyasi kengaytirilgan yig'ilishi bayoniga muvofiq, "Ayollar daftari" bilan ishlash tizimiga o'zgartirish kiritildi. Shunga ko'ra, yanvar oyida "mahalla yetiligi" ishchi guruhlari bilan birgalikda anketa-so'rovnoma asosida uyuma-uy yurish orqali har bir ayolning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va turmush sharoiti o'rganilib, suhbatlar o'tkazildi va anketa-so'rovnomalari to'ldirildi.

Bugungi kunda viloyatda 30 yoshdan yuqori bo'lgan xotin-qizlar 843 ming nafarga yaqinni tashkil etadi va xatlov jarayonida ularning 814,4 ming nafari bilan suhbatlar o'tkazilib anketa-so'rovnomalari to'ldirildi.

Fevral oyida "mahalla yetiligi" tomonidan "Ayollar daftari"ning 6-bosqichiga kiritiladigan xotin-qizlar ro'yxati shakllantirilib, ularning kollegial qarori bilan tasdiqlandi va xotin-qizlarning individual dasturlari ishlab chiqildi.

Shu tariqa joriy yilda "Ayollar daftari"ning 6-bosqichiga viloyatimiz bo'yicha 104 ming 509 nafar xotin-qizlar kiritildi.

Xususan, 1-toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar 45 ming 249 nafarni tashkil etdi va ularning bandligini ta'minlash ishlari olib boriladi.

2-toifa – tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmand 3260 nafar xotin-qizga imtiyozli kreditlar ajratilib, tadbirkorlik qilish uchun ko'maklashiladi.

3-toifa – boquvchisi bo'lmagan ehtiyojmand 23841 nafar xotin-qizga bir martalik moddiy yordam ko'rsatilishi belgilandi.

3.1-toifa – uy-joyi ta'mirlanadigan 258 nafar xotin-qizga bu borada ko'mak beriladi.

4-toifaga kiritilgan ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand 21 ming 621 nafar xotin-qizga ham bir martalik moddiy yordam ko'rsatilishi belgilangan.

Ushbu toifadagi uy-joyi ta'miriga muhtoj 113 nafar xotin-qizlarning uy-joyini ta'mirlashga ko'maklashiladi.

5-toifa – uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar 336 nafarni tashkil etmoqda. Ularning 76 nafarini uy-joy bilan ta'minlash 260 nafariga esa ijara kompensatsiyasi to'lab beriladi.

6-toifaga mansub qaramog'ida nogironligi bo'lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlar 10 ming 202 nafar bo'lib, ularga bir martalik moddiy yordam ko'rsatilishi belgilandi. Shuningdek, bu toifadagi 155 nafar opa-singillarimizga tomorqadan unumli foydalanishi uchun yordam beriladi.

Shuningdek, daftarga kiritilgan xotin-qizlarga huquqiy, psixologik yordam ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, tibbiy yordamga muhtoj xotin-qizlarga stasionar, ambulator davolanishlari uchun imkoniyat yaratilib, zarurat bo'lsa, reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlanadi. Bunday xotin-qizlarning farzandlariga ham tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Bu vazifalar joriy yilning mart-noyabr oylari davomida mutasaddi tashkilot va idoralar rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kasaba uyushmalari tomonidan ham bu borada amaliy ishlar boshlandi. Xususan, daftardagi xotin-qizlar Xorazm viloyati va Toshkent shahriga sayohatga yuborilmoqda. Yaqinda Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan kasaba uyushmalari tizimidagi korxonalar va tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar uchun Samarqand shahridagi tarixiy obidalariga sayohat uyushtirildi hamda bayram tadbiri tashkil etildi. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 1211 raqamli "Ishonch telefoni" orqali xotin-qizlarning murojaatlari qabul qilinib, muammolarga yechim topilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, "Ayollar daftari" xotin-qizlarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlash, ularga bilim va kasb o'rgatish, muammolarini aniqlash va bartaraf etish tizimi bo'ladi.

**Suhrob RAFIQOV,
O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasi viloyat kengashi raisi.**

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Viloyatning bu yilgi mahalliy lashtirish dasturiga 119 ta loyiha bo'yicha 2,8 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Jumladan, 38 ta loyiha yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga va 81 ta loyiha mavjud loyihalarni kengaytirishga qaratilgan.

Doimiy asosda "Ichki bozor ehtiyojlarini o'rganish – importni tahlil qilish – resurs bazasini aniqlash – yangi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish" tamoyili asosida ishlab chiqarish orqali mavjud imkoniyat va salohiyatdan foydalanish, yangi ishlab chiqarishni tashkil etish yo'nalishida tadbirlarga ustuvorlik beriladi.

Mamlakatimizda qurilish sohasining jadal rivojlanishi qurilish materiallariga talabning oshib borayotganligiga olib kelmoqda. Shuning uchun mahaliy mineral va boshqa xomashyo manbalaridan foydalanilgan holda qurilish materiallarini ishlab chiqarishga investitsiya kiritish yaqin yillarda mahalliy va xorijiy tadbirkorlarga jozibador bo'lib qoladi.

Viloyatimizda bu yo'nalishda juda katta imkoniyat bor. 185 ta noruda konlarda 3,2 million tonna kaolin, 17,6 million tonna ohaktosh, 149 million metr kub tabiiy pardozbop toshlar, 61 million tonna gips va angidrid, 1,6 million tonna dala shpati, 10,2 million tonna shisha va 537 million tonna sement xomashyosi mavjud. Agar 2024-yilda respublika bo'yicha 89 million dollarlik marmar, granit kabi qurilish mahsulotlari import qilinganligini e'tiborga olsak, ehtiyoj mavjud bo'lgan mahsulotlarni o'zimizda ishlab chiqarish orqali import o'rini bosish, valyuta chiqib ketishning oldini olish mumkin.

ISHLAB CHIQARISHNI MAHALLIYLASH-TIRISHNING YANGI BOSQICHI

Mahalliy lashtirish siyosatini izchil davom ettirish, import qilinib kelayotgan har bir mahsulotni mahalliy lashtirishni o'ylashimiz kerak. Viloyatimizda import ulushi va salmog'i katta tovarlardan biri – farmatsevtika mahsulotlaridir. Respublikamiz bo'yicha dori vositalari ulgurji savdosi bilan shug'ullanadigan korxonalarining katta qismi viloyatimizda joylashgan bo'lib, ular tomonidan 2024-yilda 255,2 million dollarlik farmatsevtika mahsulotlari import qilingan va 2023-yilga nisbatan 11,9 foizga o'sish bo'lgan.

Viloyatda "SAMARKAND ENGLAND ECO MEDICAL" qo'shma korxonasi infuzion va tabletkali shaklidagi dori vositalari, "OPTIMA SOBIRJON" MChJ da tibbiyot qo'lloqlari va infuzion sistemalar, "URGUT FORTUNA MEDICAL" korxonasi suyuq shaklidagi dori vositalari va tibbiyot buyumlari ishlab chiqarilib, ularning assortimentini kengaytirish ustida ishlar olib borilmoqda.

Oqdaryo tumanidagi "YAKSINA MEDICAL" korxonasi tabletkali va kapsula shaklidagi va Jomboy tumanidagi "POLIDAR PHARM" korxonasi shacha shaklidagi (suppozitariy) dori vositalari ishlab chiqarish quvvatlarini yaratgan. Mahalliy lashtirish siyosati nafaqat import o'rini bosadigan butlovchi buyumlar va mahsulotlar ishlab chiqarishga, balki amalga oshirilayotgan investitsion loyihalarda mahalliy mahsulotlar ulushini, mahalliy kontentni oshirishga qaratiladi. Bu ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish yangi bosqichi uchun belgilangan birinchi yo'nalish bo'lib hisoblanadi.

Viloyatimizdagi mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi "AZIA METALL PROF" qo'shma korxonasi mahalliy va xorijiy investorlar dastlabki sex qurilishidan boshlab mahalliy kontentni ko'paytirishga qaror qilishdi. Birinchi navbatda, ishlab chiqarish binolarini qurishda zarur bo'lgan sendvich panellar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishdi va o'z ehtiyojlarini uchun sendvich panellarni korxonada ishlab chiqarmoqda. Shuningdek, korxonalar mahsulotlari qurilish materiallari bozoriga ham sotilmoqda.

Yangi sexlarni qurishda zarur bo'lgan metallardan tayyorlanadigan konstruksiyalarni import qilmasdan, ishlab chiqaruvchi chizmalari asosida korxonaga olib kelingan metallardan yasash va o'rnatishni yo'lga qo'yishdi. Bu orqali korxonalar uchun yana bitta biznes yo'nalishi – buyurtma asosida metall konstruksiyalarni tayyorlash xizmati paydo bo'ldi.

Viloyatimizda 2025-yil uchun rejalashtirilgan umumiy qiymati 2,8 milliard dollar bo'lgan 77 ta investitsion loyiha bo'yicha 1,3 milliard dollarlik mahalliy kontent belgilab olindi. Bu loyihalar doirasida mahalliy mahsu-

ISHLAB CHIQARISHNI MAHALLIYLASH-TIRISH

SANOATDA KOOPERATSIYA ALOQALARINI KENGAYTIRISHNING YANGI BOSQICHI

lotlar va xizmatlardan keng foydalanish natijasida import o'rini bosish bo'yicha 478,7 million dollarlik samaradorlikka erishish rejalashtirilgan.

Fikrimizcha, mahalliy kontentni kengaytirishni hududlarda har bir investitsion loyihaga qo'llash maqsadga muvofiq. Bunda loyihaboy ishlab chiqarish chuqurlashtirish, har bir loyihani tashabbuskor tadbirkor bilan chuqur muhokama qilish zarur.

2025-yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokida 1,4 milliard dollarlik 108 ta loyihani amalga oshirish prognozi berilgan. Ularda mahalliy mahsulotlar ulushi kamida 432 million dollarni tashkil etishi mumkin. Agar ular import qilinmasdan mahalliy korxonalar xarid qilinsa, bu korxonalar uchun 5,7 trillion so'mlik ishlab chiqarilgan mahsulot bo'ladi.

Mahalliy lashtirishni kengaytirishdagi **ikkinchi yo'nalish** hududlarda amalga oshirilayotgan **strategik xomashyo ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulotini qayta ishlab bosqichlarini tashkil etishdir**.

"AZIA METALL PROF" qo'shma korxonasi yiliga 120 ming tonna ruxlangan va polimerlangan tunuka mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega sex faoliyat ko'rsatmoqda. Ichki va tashqi bozorda bu mahsulotlarga o'sib borayotgan talabni hisobga olgan holda, qo'shma korxonalar ta'sischi mahalliy lashtirishni kengaytirishga qaror qilishdi. Yillik quvvati 360 ming tonna bo'lgan yangi sex ishga tushish arafasida. Ushbu sex ishga tushishi bilan korxonalar bozorga 4 barobar ko'p turli qalinlikdagi ruxlangan va polimerlangan tunuka mahsulotlarini chiqarish imkoniyati paydo bo'ladi.

Ushbu korxonaning 2025-yil oxirida ishga tushirilishi rejalashtirilgan eritish sexida ishlab chiqariladigan 800 ming tonna o'rnamali mahsulotlari uchun bozor topish zarur. Uning qariyb 60 foizi korxonaning ichki iste'moliga ketgan taqdirda ham, qolgan qismiga bozor topish ustida oldindan ishlab muhim hisoblanadi.

Uchinchi yo'nalish – yirik tarmoq korxonalar mahalliy korxonalarini "Shatakka olish" tizimi orqali ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilish.

Bunda respublikada ishlab chiqarilmaydigan va mahalliy korxonalar o'zlashtirish uchun taklif etilayotgan yangi mahsulot turli salohiyatli ishlab chiqaruvchilarga taklif qilinadi va mahsulotga bo'lgan texnik parametrlar, sifat ko'rsatkichlari, yillik talab hajmi, maksimal xarid narxi, shuningdek, standartlarga muvofiq lashtirish bo'yicha talablar qo'yiladi. Loyihani amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishilgandan so'ng mahsulot ishlab chiqarilgunga qadar tarmoq korxonasi mahsulotga qo'yilgan talablarga erishish bo'yicha ishlab chiqaruvchiga ko'mak ko'rsatib, jarayonni kuzatib boradi.



Bu esa ertaga mahsulot ishlab chiqarilgandan keyin uni xarid qilish jarayonida turli xil vajlar bilan rad qilishning oldini oladi.

"Shatakka olish" tamoyili asosida sanoatda kooperatsiya aloqalarini o'rnatish va rivojlantirish tajribasi Navoiy kon-metallurgiya kombinatida yaxshi yo'lga qo'yilgan va hozirgi kunda Navoiy viloyatida shu yo'nalish orqali jadal rivojlangan korxonalar safi kengayib bormoqda.

Bizda bugungi kunda MJJ shaklidagi "SAM AUTO" qo'shma korxonasi tomonidan ushbu tizim qo'llanilib, bir qator korxonalar "shatakka" olingan. Masalan, korxonaga 2024-yilda Past Darg'om tumanidagi "ESMAK AUTOMOTIVE" MChJ avtobuslar uchun 38 milliard so'mlik avtomatik eshiklar, haydovchi va yo'lovchilar o'rindiqlari, konditsionerlar, "LOGIC AUTOMOTIVE AND ENGINEERING" xorijiy korxonasi yuk avtomobillari uchun 1,3 milliard so'mlik karkaslar, Samarqand shahridagi "SHERDOR ELITA PLAST" MChJ 2,8 milliard so'mlik avtototet, shamol qaytargich, stekloplastik qoplamalar, Ishitxon tumanidagi "MITAN O'G'U ELEKTRIK" MChJ 4 milliard so'mlik avtobus, yuk avtomobillari salonlarini yoritish va isitish tizimlarini yetkazib bergan. Shu tizimni respublikaning barcha hududlarida kamida bitta yirik korxonalar asosida tashkil etish lozim.

To'rtinchi yo'nalish – import qilinayotgan mahsulotlarni mahalliy muqobil ishlab chiqaruvchilar mahsuloti bilan almashtirish.

Bugungi kunda viloyatimizda 39 ta yog' ishlab chiqarish korxonasi mavjud bo'lib, ularning quvvati 40-50 foizga yuqilangan, xolos. Shu sababli o'tgan yil viloyatga 24,7 million dollarlik kungaboqar yog'i import qilingan. Bugungi kunda "O" stavkada bojxona orqali kirib kelayotgan yog' mahsulotlariga qo'shilgan qiymat solig'ini to'lab kelayotgan mahalliy korxonalar raqobat qila olmayapti. Yog' bozorida xorijiy va mahalliy korxonalar uchun teng raqobat muhitini yaratish, import bojlarini qayta ko'rib chiqish, nafaqat yog' ishlab chiqaruvchilardagi ish o'rinlarini saqlab qolish va soliq tushumlarini oshirishga, balki kungaboqar chiqindisidan yem sifatida foydalanish natijasida chorva va parranda go'shti miqdori oshishi va tannarxi pasayishiga ta'sir ko'rsatadi. 2024-yilda viloyatimiz tadbirkorlari 2,4 million dollarlik 21,2 ming tonna kungaboqar kunjarasini import qilganini e'tiborga olinsa, bu masalaning yechimi yetarli samara berishiga ishonchni mustahkamlaydi.

Yana bir misol, 2024-yilda viloyatga 21,5 million dollar-



lik 13 400 tonna tovuq go'shti import qilingan. Ayni paytda mahalliy parrandachilik xo'jaliklari o'z mahsulotlarini sotishda qo'shilgan qiymat to'lovchilari bo'lganliklari uchun import bilan narxlarda raqobatlasha olmayapti, quvvatlardan to'liq foydalanilmayapti, xusaning rivojlanishiga to'siq bo'lyapti.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish mavjud, lekin mavjud quvvatlar iste'molni to'la qoplay olishga yetmaydigan mahsulotlar bo'yicha quvvatlarni oshirish va yangi quvvatlarni tashkil qilish bo'yicha yangi investitsiya loyihalari shakllantirish zarur.

Viloyatda qurilishlar uchun kafel ishlab chiqarish bo'yicha "PRIME CERAMICS" MChJ, fasad g'ishtlari ishlab chiqarish bo'yicha "CERAMIC BRICKS" qo'shma korxonasi mahsulotlari ichki ehtiyojni to'la qondira olgani yo'q. Shu sababli 2024-yilda viloyatga umumiy qiymati 7,6 million dollarlik 22,1 ming tonna kafel va umumiy qiymati 853 ming dollar bo'lgan qoplama g'isht mahsulotlari import qilingan.

Hozirgi kunda Nurobod tumanida Avstriyaning "Lasselsberger" xorijiy kompaniyasi tarkibidagi "Cemix" xorijiy korxonasi tomonidan umumiy qiymati 110 million AQSh dollarlik, yiliga 5 million kvadrat metr yirik formatli keramogranit va 2 million kvadrat metr fasad plitalari ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirish boshlangan.

Shuningdek, o'tgan yil viloyatimizga umumiy qiymati 9,7 million dollar bo'lgan 2400 tonna mol go'shti va qiymati 354,4 ming dollar bo'lgan 119,2 tonna qo'y go'shti import qilingan. Bu mahsulotlardan chorvachilik sohasida qoramol va qo'y larni boqishni kengaytirishga qaratilgan yangi investitsion loyihalarga ehtiyoj kattaligini ko'rish mumkin.

Uchinchidan, O'zbekistonda umuman ishlab chiqarilmaydigan mahsulotlar bo'yicha istiqbolli loyihalarni shakllantirish va salohiyatli mahalliy va xorijiy investorlarga taklif etish lozim. Masalan, turli asbob-uskunalar, instrumentlar, yarim o'tkazgichlar va elektronika uchun mikrochiplar, shisha linzalar shular jumlasidandir.

Beshinchi yo'nalish – mahalliy korxonalar orasida kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarini sotish uchun shart-sharoitlarga yaratish. Bu borada Samarqand shahridagi "SAM AUTO" korxonasi qoshida avtomobilsozlik korxonalar sanoat kooperatsiyasi shtabini tuzib, uning faoliyatiga viloyatdagi metallni qayta ishlab va plastik mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarini taklif etib, tizimli tarzda sanoat kooperatsiyasi jarayoniga qo'shilish, "shatakka olish" tamoyili joriy etish ishlari olib borilyapti. Jumladan, "DAMAS" rusumli avtomobillar uchun 5 turdagi turli butlovchi buyumlar ishlab chiqarish loyihalari shakllantirildi.

Oltinchi yo'nalish – tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, mahalliy sanoat korxonalar mahsulotlarini ichki bozorda sotish, ularning eksportiga ko'maklashish davom ettiriladi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar cooperation. uz elektron kooperatsiya portali faoliyati, uning funksiyalari kengaytirib boriladi, davlat xaridlarida bu portal ishtirokchilariga ustuvorlik berilishi davom ettiriladi.

Shu bilan birga, hududlarda sanoat yarmarkalari orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini tanitilishini kuchaytirish va sotilishini ko'paytirish tadbirlari yo'lga qo'yildi va 2025-yilda hududiy sanoat yarmarkalari davom etadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2021-yilda Jomboy tumanida davlat-tashabbusi sheriklik asosida doimiy asosda faoliyat ko'rsatadigan "SOF EXPO SAMARKAND" xalqaro ko'rgazmalar markazi tashkil etilgan edi. 2024-yilda markazda turli yo'nalishdagi 8 ta ko'rgazma o'tkazildi. 2025-yil 22-25-fevral kunlari ushbu majmuada bo'lib o'tgan an'anaviy "Qishloq xo'jaligi texnikalari, texnologiyalari AGRO EXPO 2025" IV Xalqaro ko'rgazmasida mamlakatimiz tadbirkorlari bilan birga Rossiya, Turkiya, Xitoy, Eron davlatlaridan 110 ta korxonalar 4 mingdan ortiq mahsulot bilan ishtirok etdi. Ko'rgazmada 70 milliard so'mlik shartnomalar imzolandi, ko'plab memorandumlar rasmiylashtirilib, o'zaro manfaatli hamkorlik muzokaralari bo'lib o'tdi.

Yettinchi yo'nalish – mahalliy lashtirilgan mahsulotlar, butlovchi buyumlar tannarxini pasaytirish, sifatini oshirish ustida ishlash. Bu yo'nalish nafaqat mahalliy lashtirish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar, balki barcha mahalliy ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining doimiy diqqat markazida bo'ladigan masala. Uning dolzarbli mamlakatimiz Jahon savdo tashkiloti (WTO)ga a'zo bo'lishi munosabati bilan yanada oshadi. Chunki unda mahalliy tadbirkorlar yuqori sifatini ta'minlash bilan birga, xorijiy biznes bilan raqobatbardosh narxlarini taklif etadigan o'z bozorini saqlab, barqaror rivojlanishda davom etishi mumkin.

**Nozir IBRAGIMOV,
viloyat hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish
masalalari bo'yicha yordamchisi,
iqtisod fanlari doktori, professor.**

OGOH BO'LING, MAGISTRAL GAZ QUVURLARI!

Magistral gaz quvurlarining muhofaza hududida xavfsizlik choralarini ko'rish g'oyatda muhim. Viloyatimizning Narpay, Kattaqo'rg'on, Nurobod, Past Darg'om, Samarqand, Oqdaryo, Toyloq, Urgut, Jomboy, Bulung'ur tumanlari hamda Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari hududi bo'yab aholi punktlari va sanoat korxonalarini tabiiy gaz bilan ta'minlovchi, yuqori bosimga ega magistrat gaz quvurlari yotqizilganligi hisobga olsak, masala kundek ravshan. Shu sababli hamyurtlarimizga murojaat qilmoqdamiz.



Eksploatatsiyaning normal sharoitini ta'minlash va quvurlar buzilishiga (ularning har qanday o'tkazilishidan qat'i nazar) yo'l qo'yimaslik uchun "Magistral gaz quvurlarining himoyasi qoidasi"ga va O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 69-moddasiga asosan, muhofaza hududi o'rnatilgan.

Magistral gaz quvurlari tarkibiga gaz quvurlari, gaz taqsimlash stansiyalari, kran turgunlari, elektr kimyoviy himoyalash uskunalari (EHZ), yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari (LEP), gaz quvurlari trassasi bo'yab yotqizilgan yo'llar, gaz quvurlarini bildiruvchi va tanituvchi belgilar kiradi.

Quvurlarning muhofaza hududiga kiruvchi maydonlar yerdan foydalanuvchilardan olib qo'yilmaydi, faqat mazkur maydonda magistrat gaz quvurlarini muhofaza qilish qoidalariga qat'iy rioya etgan holda qishloq xo'jaligi yoki boshqa turdagi ishlarni olib borish mumkin.

Muhofaza hududida quvurlarning me'yorida ishlashiga xalaqit beruvchi yoki ularga shikast yetkazuvchi har qanday turdagi ishlarni bajarish taqiqlanadi. Xususan:

- har qanday qurilish ishlarini olib borish, doimiy va vaqtinchalik imoratlar qurish;



- har xil turdagi daraxt va butalarni ekish, yem-xashak, ozuqa, o'g'it va materiallarni to'plash, pichan g'amlash, chorva mollarni saqlash va suv ichadigan hovuzlar qurish, baliq yetishtirish uchun uchastkalar ajratish va baliq hamda boshqa suvda yashovchi va suzuvchi hayvonlarni parvarishlash;

- quvur yo'nalishi ustidan o'tish va kesib o'tish yo'llarini qurish, traktor va boshqa og'ir mexanizmlar uchun turarjoylar barpo etish, jamoat bog'lari va polizlarni tashkilatish;

- turli xil qurilish-montaj, portlatish va burg'ulash ishlarini amalga oshirish, tuproqni surish va tekislash;

- melioratsiya ishlarini bajarish, sug'orish va suv qochirish kanallarini qurish, chuqurlashtirish;

- nazorat-o'lchov quduqlari, nazorat-o'lchov punktlari, bildiruvchi va ogohlantiruvchi belgilarni buzish, joylarini o'zgartirish;

- kabel aloqasi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytiruvchi punktlarning qopqoqlarini, kimyoviy himoyalash stansiyasi va boshqa uskunalarni atrofiga o'rnatilgan sim to'siqlarni ochish va ichiga kirish, kranlar, zulfilar va jo'mraklarni ochish yoki yopish, aloqa vositalari va energiya ta'minoti uskunalarni o'chirish va yoqish;

- belgilangan hududda turli xil chiqindilarni yig'ish, yerga ishqorlar, tuzlar, kislota eritmalarini to'kish;

- har xil maqsadlarda olov yoqish, quruq xashak va somonlarni yoqish;

- himoya hududlarida sun'iy havzalar va sholi ekinlari ekish.

shartli chiziqlar bilan chegaralangan bo'ladi.

Qishloq xo'jaligiga taalluqli yerlardan himoya maydoni magistrat gaz quvurlarining o'qidan har ikki tomoniga 25 metr masofada o'tadigan shartli chiziqlar bilan chegaralanadi.

Gazdan kondensatni ajratish va saqlash uchun sig'imlar atrofida, neft, kondensat va siqilgan uglevododrodlarni avariya holatida chiqarish uchun yer omborida ko'rsatilgan obyektlar maydoni chegarasida har tomoniga 50 metrdan tutashgan chiziq bilan chegar-



langan uchastka ko'rinishida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrda "Gaz transporti tizimi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 651-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasida "Qurilish me'yori va qoidalari" (QM 2.05.06-97) me'yoriy hujjatlari asosida magistrat gaz tarmoqlari atrofida quvurlar diametriga mos holda muhofaza hududlari belgilangan.

Unga ko'ra, diametri:
- 1200 mm dan 1400 mm gacha bo'lgan magistrat gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 350 metr;
- 1000 mm dan 1200 mm gacha bo'lgan magistrat gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 300 metr;

- 800 mm dan 1000 mm gacha bo'lgan magistrat gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 250 metr;
- 600 mm dan 800 mm gacha bo'lgan magistrat gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 200 metr;
- 300 mm dan 600 mm gacha bo'lgan magistrat gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 150 metr;
- 300 mm va undan kichik bo'lgan magistrat gaz quvurlarining muhofaza hududi quvur o'qidan har ikki tarafga - 100 metr va gaz taqsimlash shoxobchalari har tomondan himoya hududi (muhofaza hududida har qanday ishlarni olib borish taqiqlangan) 100 metr.

Shu bilan birgalikda, aholi e'tiborini quyidagilarga qaratmoqchimiz. Davlatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatiga ko'ra, aholi tomonidan tegishli mahalliy hokimiyatlar ruxsatisiz avvaldan qurilib, hozirda aholi istiqomat qilib kelayotgan ayrim uy-joylar ham tegishli hujjatlar orqali egalari mulk sifatida rasmiylashtirib berilmoqda. Lekin magistrat gaz quvurlarining xavfli hududida, boshqacha aytganda, "Qizil hudud" ichida qurilgan noqonuniy imoratlar uchun bu yengilliklar tatbiq etilmaydi va bunday imoratlar buzilishi kerak bo'ladi.

Agarda hamyurtlarimizning yer uchastkasi yoki dehqonchilik qilayotgan maydoni magistrat gaz

quvurlari yaqinida joylashgan bo'lsa, biror turdagi qurilish ishlarini boshlashdan oldin shu gaz quvuriga xizmat ko'rsatuvchi boshqarmaga murojaat qilib, ish ko'rish tavsiya etiladi. Shunday holda fuqarolar o'zboshimchalik bilan qurilgan noqonuniy imoratni buzilishi bilan bog'liq ortiqcha asabuzarlik va keraksiz moddiy chiqimlardan xoli bo'lishadi.

Magistral gaz quvurlari qoidalari buzilishiga sabab bo'lgan mansabdor shaxslar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksining "Magistral quvurlari himoyasi qoidalarini buzish haqida"gi 150-moddasiga asosan ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Tashkilot manzili:
Samarqand tumani Gulobod maskani,
Gazchilar qo'rg'oni.
Telefonlar: +99866-612-56-01,
612-53-04, +99899-022-77-12.

O'ktamxon TUROPOV,
Samarqand magistrat gaz quvurlari boshqarmasi boshlig'i.
Iskandar SHUKUROV,
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi Samarqand hududiy boshqarmasi neft va gaz sohasida sanoat xavfsizligi bo'yicha bosh mutaxassisi.

TIL XALQLARNI BIRLASHTIRADI

Chet tili xorijiy tilda gapirish, tinglash, o'qish va yozish ko'nikmalarini egallashdangina iborat emas. Til o'rganish orqali boshqa xalqlarning madaniyatiga, tarixiga, falsafasiga va ijtimoiy hayotiga kirib boramiz. Shuning uchun ham chet tili insonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tilni o'rganish yangi dunyoqarash, yangi fikrlash usullari va noyob qirralarni ochadi.



Bugun chet tillarini o'rganish jarayoni faqat darsliklar va grammatika qoidalarini o'zlashtirish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlar va amaliy loyihalar orqali o'quvchilar tilni real hayotda qo'llashni o'rganadi. Shu bois tilni o'rganishga nazariy emas, balki amaliy mahorat sifatida qaraladi.

Joriy yilning 27-mart kuni Samarqand davlat

chet tillar instituti ingliz tili fakulteti ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasida tomonidan "Til, fan va madaniyatlar integratsiyasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkaziladi.

Unda O'zbekiston, Qozog'iston, Rossiya, Hindiston, Turkiya, Kanada, Amerika kabi o'ngacha yaqin mamlakatlardan professorlar, yosh izlanuvchilar ishtirok etishi rejalashtirilgan.

Anjumanda "Til nazariyasi va muloqot madaniyati", "Madaniyatlararo munosabatlarda tilning o'rni", "Ilmiy va professional ta'limga fanlar integratsiyasi", "Ilmiy tadqiqotlar jarayonida yoshlarning innovatsion g'oyalari" kabi mavzularda ma'ruzalar o'qiladi. Mutaxassislar hamkorligida chet tillarini o'rganishning samarali usullari va uni amaliyotga joriy etish yo'llari muhokama etiladi. Xalqaro tajribalar o'rganilib, mahalliy ta'lim tizimiga kiritish takliflari bildiriladi.

Ushbu ilmiy-amaliy anjuman chet tillarini o'rganish sohasida dolzarb muammolarni o'rtaq tashlashi va ularni hal etish yo'llarini muhokama qilishi bilan ahamiyatli.

Shahlo SHOMURODOVA,
institut professori.

Xotin-qizlar uchun IT-mehnat bozoriga yo'llanma

Samarqand shahridagi School 21- xalqaro texnologiyalar maktabida Raqamli texnologiyalar vazirligi ko'magida IT va raqamli sohada karera qurishni maqsad qilgan qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan «Women Yempowerment Weyek in Tech» nomli ta'lim loyihasi o'z ishini boshladi.

Loyihada ishtirok etish uchun respublikamizning barcha viloyatlaridan 400 dan ortiq talabgardan arizalar kelib tushdi. Tashkilotchilar ular orasidan 50 nafar ishtirokchini tanlab olishdi.

- Mazkur haftalik qizlarga texnologiyalar sohasiga dadil kirib borish, zarur bilimlarni egallash va raqamli dunyoda o'z o'rnini topishga yordam berish maqsadida tashkil etildi, - deydi Raqamli texnologiyalar vazirligining yoshlar va ayollarni IT sohasiga jalb qilish bo'yicha maslahatchisi Kamola Sobirova. - Tadbir nafaqat sohaga endigina qadam qo'yayotgan qizlarga zarur ko'nikmalarni egallashga va o'z kuchlariga ishonishga yordam beradi, balki ular uchun yuqori maoshli istiqbolli kareraga yo'l ochib beradi.

Haftalik ishtirokchilari orasida talabalardan tashqari, turli sohalarida ishlaydigan mutaxassislar va onalar ham bor. Farzandi bilan keladigan onalarga qulaylik yaratish maqsadida bolalar xonasi tashkil etildi. Ishitirokchilar loyiha va mahsulot menejmentini o'zlashtirish bilan birga, frilans platformalaridan IT buyurtmalarini izlash, bozorga kirish uchun kuchli rezюме va portfolio yaratishni o'rganadilar. Dastur sohaning mahalliy va xorijiy tajribaga ega yetakchi ekspertlari, jumladan, TBC, Payme, Group-IB va Women in Tech mutaxassislari ishtirokida o'tkazilmoqda.

Dilmurod TO'XTAYEV.

"SAMARQANDDONMAHSULOTLARI"
AKSIYADORLIK JAMIYATI

AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"Samarqanddonmahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishi 2025-yil 15-aprel kuni (haftaning seshanba kuni) soat 09:00 da Samarqand shahri Ziyokorlar ko'chasi, 4-uy manzilida joylashgan jamiyat majlislar zalida o'tkazilishini ma'lum qiladi.

Jamiyat aksiyadorlarining 2024-yil yakuni bo'yicha yillik umumiy yig'ilishi kun tartibida quyidagi masalalar muhokama qilinadi:

UMUMIY YIG'ILISH KUN TARTIBI:

1. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining sanoq komissiyasi va ishchi prezidiumi a'zolarini saylash.
2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibi va reglamentini tasdiqlash.
3. Jamiyat kuzatuv kengashining 2024-yilda bajarilgan ishlari bo'yicha hisoboti.
4. Jamiyatning 2024-yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti. Unda 2024-yilning asosiy natijalari hamda 2025-yilda amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar to'g'risida boshqaruv raisining hisoboti eshittiladi.
5. 2024-yil uchun jamiyatning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotini hamda xalqaro audit standartlariga muvofiq 2024-yil uchun o'tkazilgan audit tekshirish natijalarini ko'rib chiqish.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-avgustdagi PQ-4426-sonli qarori talablariga muvofiq, jamiyat boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish masalalari bo'yicha o'rinbosarining 2024-yil yakunlari hisoboti.
7. Jamiyatda 2024-yil yakunlari bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilot xulosasini ko'rib chiqish.
8. Jamiyatning 2024-yil yakunlari bo'yicha sof foydasini taqsimlash.
9. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari va kotibini saylash hamda ish haqini belgilash.
10. Jamiyat boshqaruv y'zolarini qayta saylash va ish haqini belgilash.
11. Jamiyatning 2025-yilgi moliyaviy faoliyatini majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash.
12. "Korxonada xaridlar jarayonining shaffofligi, asosillig'i, shu jumladan, mahalliy mahsulotlarning sifat va narx bo'yicha belgilangan parametrlarga muvofiqiligini hisobga olib holda import xaridlarini, shuningdek, valyuta resurslaridan samarali foydalanilishi to'g'risida"gi

tashqi audit xulosasini tasdiqlash.
13. Jamiyatning yangi tahrirdagi nizomi va korporativ boshqaruv nizomlarini tasdiqlash.
14. Jamiyatning 2025-yil uchun mo'ljallangan "Bisnes rejasini"ni tasdiqlash.

Aksiyadorlarni ro'yxatga olish 2025-yil 15-aprel kuni soat 08:00 dan 09:00 ga qadar davom etadi.
Yig'ilishga aksiyadorlar shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar, ularning vakillari esa amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchomalar bilan kelishlari so'raladi.

Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning ro'yxatini tuzish hamda yig'ilish o'tkazilishi haqida xabarona olish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2025-yil 20-mart kuni va umumiy yig'ilishga qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestrini shakllantirish sanasi 2025-yil 9-aprel kuni belgilandi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari yig'ilishida ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha ma'lumot va materiallar bilan "Samarqanddonmahsulotlari" AJ da ushbu xabar e'lon qilingan kundan boshlab yig'ilish o'tkaziladigan kunga qadar soat 8:00 dan 10:00 gacha tanishish mumkin.

Murojaat uchun telefon: +99866-239-55-04.
Jamiyatning rasmiy veb-sayti: www.samdon.uz
Elektron pochta manzili: samarqanddon@mail.uz

Hurmatli aksiyadorlar!
Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi axborot va boshqa ma'lumotlarni jamiyat aksiyadorlariga sifatli va tezkor ravishda yetkazilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, elektron pochta orqali amalga oshirilishini inobatga olib, sizdan elektron pochta manzilingizni (E-mail) taqdim etishingiz lozimligini ma'lum qilamiz.

JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.

Samarqand tumanida-gi "EGZOTIKA PLUS SAVDO" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 300541119) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

Sotuvchi Oblokulova Marxabo Karimovna va sotib oluvchi Alimov Rashid Raximovichlar o'rtasida Samarqand shahri sobiq Siyob tumani S.Ayni ko'chasi, 4-uyda joylashgan omborxonada binosi (umumiy maydoni 75,25 m.kv., foydali maydoni 62,31 m.kv.) va ustaxona binosining bir qismi (umumiy maydoni 101,15 m.kv., foydali maydoni 90,31 m.kv., egallab turgan yer maydoni 1312,46 m.kv.) uchun tuzilgan Samarqand viloyat davlat kadastri bosh boshqarmasidan 2003-yil 19-sentabrda tasdiqlangan 172-sonli oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi hamda ushbu shartnoma asosida 2003-yil 19-sentabrda tuzilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasi yo'qolganligi sababli **BEKOR QILINADI.**

Yashar Qosim va o'zbek she'riyati

Taniqli adabiyotshunos olim va munaqqid, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Ozarbayjon Milliy Ilmlar Akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti bosh ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori Yashar Qosimning "XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatidagi poetikasi" deb nomlangan monografiyasi nashr etildi. Unda o'tgan asr 60-yillar o'zbek she'riyatiga kirib kelgan yangi avlod shoirlari asarlaridagi yatakchi pafos, g'oyaviy-estetik ko'lam, milliy idealning yangilanishi, obrazlar rang-barangligi, ramzlar olami, ifoda yo'sini, yorqin estetik qirralari, tasvir metodi va qadriyatlarga tayanish uslubi ma'naviy-estetik manbalarga uyg'unlashish, tarixiy genezisga tutashish asnosida yaratib berilgan. Monografiyadan muallifning o'tgan asr 70-, 80-, 90-yillariga oid o'zbek she'riyatiga to'g'risidagi chuqur ilmiy mushohadalarga boy tadqiqotlari o'rin olgan.

XX asrning 60-yillari muqaddimasida o'zbek she'riyatiga dadil qadamlar bilan kirib kelgan Erkin Vohidov, Jamol Kamol, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Cho'ipon Ergash, Muhammad Ali, Omon Matjon, Oydin Hojiyeva, Halima Xudoyberdiyeva kabi noyob iste'dod egalarning ijodiy adabiy tanqidchining ilmiy-estetik izlanishlari asosini tashkil qilgan. Lirik tasvirni davr mafkurasi qolipidan chiqib, erkinlik iforlarini namoyon qila boshlagani muallif nuqtai nazaridan kelib chiqib talqin etilgan.

Munaqqid Vatani, millat, xalq, el-yurt, til, tarix, zamon va ma'naviyat badiiy so'z san'atining asosiy oziqlantiruvchi manbasi bo'la olishiga urg'u beradi. Asl iste'dodlarning Vatanga, millatga, el-yurtga bo'lgan otashin mehri shoirlik muhabbatini, sodiq insonlik rutbasini ro'yobga chiqarishini qayd etadi.

Ammo barcha zamonlardagi adabiyot mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum va tartiblariga, aniqrog'i, o'sha davrdagi hukumat siyosatiga, hukmron mafkurasiga bo'ysundirilishi uning asl jozibasini namoyon qilishiga, tarixiy ilidziga tutashishiga to'sinlik qilishi muqarrarligi haqida fikr yuritilgan. XX asrning ikkinchi



yarmida badiiy so'z san'atini mavjud mafkura bo'yusundirish tizimi birmuncha susayishi ortida xalqimiz o'zligini namoyon etuvchi yombi obrazlar, xususan, Alisher Navoiy siyosining lirik asarlaridagi tasviri qayta jonlanganligiga to'xtaladi. Xususan, Yashar Qosimning "Alisher" she'riga shunday munosabat bildiradi: "... ulug' ustozning birgina kechmish tariximizdagi, ruhiy-irokiy taraqqiyotimizdagi bebaho xizmatlariga Abdulla Oripovning "Alisher" she'rida badiiy yaratilmagan, balki uning milliy istiqbolga bo'lgan hayotbaxsh ta'siri, xalq qalbidagi asrlardan buyon aks-sado berib yangrayotgani, minnatdor avlodlar ma'naviy hayotiga yo'lchi yulduzday nur sochgani teran va obrazli shaklda, jozibador ochib berilgan:



*Birovlar nazdida johil Osiyo
Faqat zavol ko'rib,
ko'rmagan kamol.
Muso iltijosi edi-yu go'yo,
Haq Tur tog'i uzra
ko'rgazdi jamol –
Jahon mehrobida
paydo Alisher ...*

Anglashiladiki, Alisher Navoiyning poetik timsoli she'rning semantik markazini tashkil etib, xalqimizning kechmish tarixiga, ruhiy-irokiy taraqqiyotiga ishora qilish bilan birga milliy istiqbolga bo'lgan hayotbaxsh tuyg'ularni xalq qalbidagi uyg'otishga ham xizmat qiladi. Bu tarixiy siymolarning lirik asarlarda tasvirlanishi Yashar Qosim nazdida yangi avlod shoirlarining ma'naviy-estetik manbalaridan biri sanaladi.

XX asr o'zbek she'riyatida tutqun ijtimoiy muhitda ijodkorning o'ziga xos ma'naviy-axloqiy qiyofasi shakllangan edi va bu holatni Fitrat, Cho'ipon, Oybek va Usmon Nosir ijodining o'lmas saboqlari G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Shuhrat, Asqad Muxtor kabi o'rta avlod vakillari lirikasida bo'y ko'rsatganligini ko'rish mumkin. Milliy o'zlikka sadoqat, xalq dardida yonish tamoyili 60-70-yillar o'zbek adabiyotiga kirib kelgan ijodkorlarning asarlarida isyonkor ruhda namoyon bo'ldi. Bu adabiy-estetik hodisaga Yashar Qosim milliy-estetik idealning yangilanishi deya baho

Adabiyotshunoslik

beradi. Yangilangan milliy-estetik idealga ega shoirlar avlodi xalq qismati, yel-yurt taqdiri, ijodiy erk va haqqoniylikni nisbatan yalov'och tarzda ifoda etganligini qayd etadi. Munaqqid fikrini isbotlar ekan, Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonidan quyidagi iqtibosni keltiradi:

*Shoir yurak – Pok tilagi
Imonidir basharning,
Armon to'la yurakdagi
Isyonidir basharning.*

Yashar Qosim stalinizm qatag'onlari davrini o'zbek she'riyatining "Milliy munglug' o'tmishi" deya nomlaydi va yangi avlod shoirlari asarlarida qatag'on siyosati qurbonlarining obrazlari tasvirlanishini (bu adabiy-estetik jarayon 70-80-yillar o'zbek she'riyatida ro'y berganligiga urg'u bermoqda – ta'kid biznik) "Dastlabki tragik portretlar" deya baholaydi. Bu tragik portretlarning old qatorida Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir kabi ulkan san'atkorlar obrazi turishini ta'kidlaydi. Shuningdek, munaqqid XX asr o'zbek she'riyatining g'oyaviy-estetik manzarasini belgilashda Vataniy konsepsiyasi va falsafasining yangilanishi, xalq obrazining yangicha talqini, shafqatsiz realizmning lirikadagi ifodasi, tagdor poetik ifodaning ramziy-metaforik in'ikos tarzini shakllantirishi va poetik ramzlar dinamikasi kabi chuqur ilmiy tahlilga asoslangan qarashlarini bayon qilganki, bularning jamlanmasi monografiyaning to'liq ilmiy salmog'ini tashkil etgan.

Xullas, "She'r lochini" – Maqsud Shayxzodaning o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligidagi ulkan xizmatini mantiqan davom ettirgan Ozarbayjon farzandi Yashar Qosim o'zbek lirikasining XX asr ikkinchi yarmidagi g'oyaviy-estetik, uslubiy manzarasini tahlil qilgan ekan, tajribali adabiyotshunos sifatida xolisona baho berishda adolat tizginiga tayangan desak, mubolag'a bo'lmaydiki, ushbu monografiya yaqin adabiyotimiz tarixini yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Sh.HASANOV,
filologiya fanlari doktori,
professor.
K.QARSHIYEV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent.

"Chavqi" an'analar davomchisi

"Chavqi" so'zining ma'nosi gulxan atrofida kechasi o'ynaladigan xalq o'yini hamda kurash degan ma'nolarni anglatadi. Bu o'yin o'ziga xos etnofolklor hodisasi bo'lib, xalqning san'atga bo'lgan talabini ma'lum darajada qondirish bilan birga, kishilarni jamoatchilik ruhida tarbiyalash vazifasini bajargan. O'yin asrlar davomida Bulung'ur, Zomin, Baxmal, G'allaorol, Payariq, Jomboy va Urgut tumanlarida keng tarqalgan.



Bulung'ur tuman madaniyat bo'limiga qarashi "Chavqi" folklor-etnografik ansambli 1986-yilda tashkil etilgan. Xalq ijodiyotining jonkuyari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Suvonqul Abduqodirov qadimiy qo'shiqlarni yaxshi biladigan kekka kishilar bilan suhbatlashib, ulardan ko'plab xalq o'yinlari va qo'shiqlarini, termalarni, laparlari va qarsak o'yinlarini yozib olgan.

"CHAVQI" QARSAK BILAN BOSHQARILADI
Ansambli jamoasi keyingi yillarda "Yil boshi", "Dehqon dala aylandi", "Poda to'p",

"Sumalak", "Samarqand bozori", "Qong'tarovdi", "Chillik", "Quloq cho'zma", "Besh qarsak", "O'mbaloc, do'mbaloc oshib o'ynaymiz", "Cho'pon-cho'liq podachi", "Topron" o'yinlari, "To'y marosimi" kabi qo'shiqlari badiiy teatrlashgan maydon tomoshalarini namoyish etib kelmoqda.

– "Chavqi" qadimda odamlar o'rtasida gulxan atrofidagi aytishuvlar, baytlar va munozaralar tarzida paydo bo'lgan, – deydi Bulung'urdagi 12-Sohibkor madaniyat markazi rahbari, "Chavqi" folklor-etnografik ansambli a'zosi Mah-

mud Ermatov. – "Chavqi"ning ilk jamoasi esa 50 yoshdan 85 yoshgacha bo'lgan nuroniylar ishtirokida tashkil qilingan. Biroq jamoa Ikkinchi jahon urushi yillari-gacha faoliyat ko'rsatib, tarqalib ketgan. Keyinchalik "Chavqi"ning yangi – ikkinchi avlodi tuzilgan. O'sha paytdan beri biz ham ansambli tarkibida ota-bobolarimizdan qolgan folklor namunalarini xalqimizga yetkazib kelyapmiz. Ansamblimizning respublikadagi boshqa folklor jamoalaridan farqi shundaki, xalq termalari, laparlari, qo'shiqlar va aytishuvlar qarsak usullari bilan boshqarib boriladi. Oldin jamoa repertuaridan uch yuzga yaqin xalq qo'shiqlari, lapar va termalar joy olgan bo'lsa, hozirgi kunda besh yuzdan ortiq xalq og'zaki ijodiy namunalari mazmun va bo'g'inlariga qarab, bir qarsak, uch qarsak, besh qarsak, yetti qarsak, to'qqiz qarsak, qo'shqarsak va mayda qarsak usullarida ijro etib kelimoqda.

XALQ MAQOLLARI VA NAQLLARNI QO'SHIQ QILYAPMIZ

Ansambli a'zolari keyingi yillarda "Hovijon", "Sumalak", "Gullola", "Jinaylik", "Gulqaychi", "Olmacha anori", "Keng ekan dalalari", "Belbog'im", "Tarallih", "Akanjonim siz bo'lasiz", "Sangina bola", "Yalla-ma yorim", "As bo'lib o'ynang", "O'ynasin", "Jon chechajon", "Yomg'ir", "Moshova" kabi xalq termalari, qo'shiqlar, lapar va xalq o'yinlari yaratgan.

– Hududlarga, qo'shni tumanlarga ekspeditsiyalar uyushtirib, yoshi ulug' insonlar bilan uchrashib, ularning og'zidan eshit-

gan qadimiy maqol va naqlarni to'plab, qo'shiq qilib, xalqimizga yetkazaypmiz, – deydi Bulung'ur tumanidagi "Chavqi" folklor-etnografik ansambli faxriy a'zosi Eshbek Normurodov. – Jumladan, "Havijon" degan qo'shiq yaratganmiz. "Hov" – hoy, chaqiriq ma'nosida, "Jon" – shirinsuxanlik bilan murojaat va erkakash sifatida qo'llanilgan. Bu so'z qadimda qishloq kelinlarining xonadondagi ayol oila-azolarga, qarindoshlari va qo'ni-qo'shnilarning ismini aytib chaqirish maqsadida "Havijon" deb murojaat qilish uchun aytilgan.

Bu qo'shni tumanimizdagi Farmontepa qishlog'ida yashovchi Zaytun momodan eshitgan "Qizning uyi qizim band, kuning borda kuning qayt, O'g'il uyi o'yin band, o'n kun yotib, keyin qayt" tarbiyaviy ahamiyatga ega maqoli asosida yaratganmiz. Bu uch-to'rt qiz uzatgan momolarning qiz chiqarayotgan yoshi ayollarga nasihati tarzida aytilgan. Ya'ni, qizningkiga borsang, yotib kelma, borib qayt. Chunki uning oilasidagi muhitni buzib qo'yish mumkin. O'g'lingniki bo'lsa, o'n kun yotib kelaver, u o'zingniki.

*Hoy hovijon, hovijon,
qizim bugun bo'y yetdi,
Palaxmonning toshida
baxtii uzalib ketdi.
Qizning uyi qizim band,
kuning borda kuning qayt,
O'g'il uyi o'yin band,
o'n kun yotib, keyin qayt. ...*

"Chavqi" badiiy jamoasi 1987-yilda Moskva shahrida o'tkazilgan O'zbekiston san'at va madaniyat kunlarida, 1988-yilda shu shaharda o'tgan xalqaro folklor festivalida faol ishtirok etib, "Xalk folklor jamoasi" unvoniga sazavor bo'lgan. Ansambli viloyat, respublika doirasidagi va xalqaro festivallarda munosib ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, o'tgan yil "Ona zamin ohanglari" telekanalining respublika bosqichida, "Boysun bahori" xalqaro folklor festivalida ikkinchi o'rinni egallagan. Shuningdek, jamoa qoshida "Chavqi nihollari" bolalar folklor ansambli tashkil etilgan. Unda tumaning iqtidorli bolalari ota-bobolarimizdan qolgan, og'zidan-og'izga o'tib kelayotgan qo'shiqlarni, termalarni o'rganadi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

– Shu yerning o'zida masalani borib o'rgan va erta kechgacha menga hisobot berasan, – dedi rahbar har bir masala yuzasidan mutasaddiga topshiriq bera turib.

Qani endi hamma rahbarlar ham aholi murojaatlariga shunday qarasa, degan o'y o'tdi xayolimdan. Shuning uchun ko'tarilgan masalalar natijasi haqida ham yozish niyatida murojaatchilar va ayrim maz'ullarning telefon raqamlarini o'ldim. Oradan uch kun o'tib, ularga birma-bir qo'ng'iroq qilib, qayd etilgan muammoga qanday yechim topilgani bilan qiziqdim.

Afsuski, murojaatchilarning hech biridan masalasi ijobiy hal bo'lganini eshitmadim. Mutasaddilar esa "hali o'rganyapmiz, murojaatlar vaqt talab qilar ekan", deyishdi.

– O'sha yerda menga birkirtilgan rahbar muammo haqida ariza yozib berishini so'radi, yozdim, – dedi murojaatchilardan biri. – Keyin yana bitta qog'oz chiqarib, "menga muammo yuzasidan tushuntirish berildi, buning uchun rahmat" degan gap yozib, imzo qo'yishim kerakligini aytdi. Axir hali muammo hal bo'lmadi-ku, desam, "Siz yozib beravering, buni rahbarga ko'rsatamiz, baribir ishingizni men bitiraman", dedi. Noiloj qo'yib berdim, shundan buyon o'sha mutasaddi telefonlarimga ham javob bermaydi.

Hafsalam pir bo'lib, o'sha idorada ishlaydigan tanishim bilan ko'rishganimda bu haqda aytgandim, beparvo qo'l siltab qo'ydi.

– Boshlig'imiz yaxshi odam, lekin faqat qog'ozga ishonadi, – dedi u. – O'zi so'rab-surishtirib ko'rmaydi. Shunday bo'lgach, o'rinbosarlar har bir murojaatni shu tarzda yopishga harakat qiladi. Qog'ozga murojaatchining imzosi

qo'ydirib kelsa bo'ldi, masala yopiladi.

Ba'zida tahririyatga kelgan murojaatchilar ham turli idoralarga bergan arizalari faqat qog'ozdan qog'ozga o'tib, yo'q bo'lib ketayotgani yoki idoradagi eng kichik mutasassis tomonidan o'rganilishi va u masala mohiyatini ham anglamay, murojaatni yopib yuborayotganidan shikoyat qilishadi.

Albatta, murojaatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va murojaatchiga javob berish bo'yicha aniq qonun me'yorlari, tartib-qoidalar bor. Ammo barcha idora va tashkilotlarda ham bu me'yorlarga qog'ozda amal qilinsa-da, hayotda aksincha holatni ko'rish mumkin. Bu endi o'sha tashkilotdagi boshqaruv, rahbarning murojaatlarga munosabatiga bog'liq.

Fuqarolar rasmiy murojaat qilganda ham rahbardan umid qilib, unga ishonib biror bir muammoni aytadi, najot kutadi. Odatda, rahbarlarga ariza va shikoyatlardan ko'ra, ana shunday og'zaki murojaatlar ko'p bo'ladi. Shunday vaziyatda odamlar najot istagan mas'ul shu masala bilan o'zi qiziqishi, zarur bo'lsa, yuqori doiralarda ko'rib chiqib, hal etish chorasini ko'rishini mumkin-ku.

Katta yoki kichik bo'lsin, biror bir jamoa, hududga rahbarlik qilayotgan shaxs odamlar mehri, ishonchini qozonish uchun avvalo, ularning dardu tashvishlarini his qilishi, chinakam yetakchiga xos fazilatlarini egallashi lozim. Afsuski, bugun ayrim rahbarlarda ana shunday fazilatlar ko'rinmayapti.

G'.HASANOV.

Qadriyat



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 476 nusxada chop etildi. Buyurtma 140. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

F.RO'ZIBOYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda